

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT
TASHQI QARZI DINAMIKASI TAHLILI VA
UNI BOSHQARISH AMALIYOTI**

Choriyeva Zebiniso Abdulkarimovna

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti mustaqil tadqiqotchisi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Davlat tashqi qarzlaridan yanada samarali foydalanish uchun uning mamlakatdagi holati hamda amaliyoti tahlili, shuningdek, davlat tashqi qarzini samarali boshqarishda yuzaga keladigan muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish yo‘llarini topish asosiy masalasi hisoblanadi. Shuningdek, davlat tashqi qarzlaridan samarali foydalanish yo‘llarini aniqlash hamda O‘zbekistonda davlat tashqi qarzlaridan foydalanish tizimini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: davlat ichki qarzi, moliya bozorlari, iqtisodiy o‘sish, davlat tashqi qarzi, davlat byudjeti, davlat qarz majburiyati.

Annotation. In this article, an analysis of the state and practice of the state in the country in order to make more effective use of foreign debt, as well as the identification of problems arising in the effective management of the state foreign value, as well as finding ways to eliminate them are the main issues. Proposals and recommendations have also been developed to determine ways of effective use of State external debts and to improve the system of use of State external debts in Uzbekistan.

Keywords: state domestic debt, financial markets, economic growth, state foreign debt, state budget, state debt obligation.

Аннотация. В данной статье основным вопросом является анализ состояния и практики государственного внешнего долга в стране с целью его более эффективного использования, а также выявление проблем, возникающих при эффективном управлении государственным внешним долгом, и поиск путей их преодоления. Также разработаны предложения и рекомендации по определению путей эффективного использования государственного внешнего долга и совершенствованию системы использования государственного внешнего долга в Узбекистане.

Ключевые слова: государственный внутренний долг, финансовые рынки, экономический рост, государственный внешний долг, государственный бюджет, государственное долговое обязательство.

Ko‘plab mamlakatlarda nisbatan uzoq vaqt davomida sezilarli darajada o‘sib borayotgan tashqi qarz jahon iqtisodiyoti faoliyatining muhim elementiga aylandi. Dunyo mamlakatlari iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirish uchun tashqi qarzlardan foydalanish va qarzlarni boshqarishda boy tajribaga ega bo‘lib kelmoqda va buni O‘zbekiston

amaliyotida qo'llash foydalidir. Tashqi qarz olish o'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra noaniq hodisadir. Ular tarkibiy islohotlarni amalga oshirishga, ichki investitsiyalar hajmini oshirishga, byudjet muammolarini hal qilishga, jumladan, yirik ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan byudjet taqchilligini qoplashga hissa qo'shishi mumkin. Shu bilan birgalikda, haddan tashqari qarz olish, ayniqsa qarzga xizmat ko'rsatish bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish imkoniyatlari cheklanganligi va ulardan samarasiz foydalanish, nazoratsiz sarflash qarz oluvchi mamlakatda tizimli iqtisodiy qiyinchiliklar va moliyaviy risklarni yuzaga keltiradi va buning natijasida ko'plab salbiy oqibatlariga olib keladigan suveren defoltni keltirib chiqarishi mumkin bo'ladi.

Shu sababli ham bugungi kunda davlat tashqi qarzlarini samarali boshqarish dunyo mamlakatlari uchun dolzarb muammolardan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. So'nggi yillarda deyarli barcha mamlakatlar tashqi qarzdan o'z iqtisodiyotida foydalanib kelayotganligi sababli bugungi kunda davlatda tashqi qarzning bo'lmasligi emas, balki undan samarali foydalanib, uni to'g'ri boshqarish muhim hisoblanadi. Tashqi qarzdan samarali foydalanish mamlakatlar uchun yanada rivojlanishning asosi bo'lib xizmat qiladi va kelajakda ular orqali mamlakat iqtisodiyotida yuqori natijaga erishish mumkin bo'ladi. Tashqi qarzni samarali boshqarish esa uni to'g'ri tashkil etish, kelajakda resurs yaratadigan sohalarga qarzlarni yo'naltirish hamda qarz jalb etish orqali mamlakat iqtisodiyotida yuqori salmoqqa erishish demakdir. Mamlakatda iqtisodiy muvozanatni ta'minlash va mavjud bo'lgan yoki jalb etilgan iqtisodiy resurslarni samarali boshqarishda iqtisodiy qonuniyatlardan to'g'ri foydalanish zarurdir. Bunda esa makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash zarur bo'lib, mamlakatlar nafaqat o'z byudjet mablag'laridan balki jalb qilingan qarz mablag'laridan foydalanishi ham mumkin bo'ladi. Davlat tashqi qarzi o'z navbatida davlat byudjeti holatiga, xorijiy investitsiyalar hajmiga, valyuta kursiga, mamlakatdagi inflyatsiyaga, iqtisodiy o'sishga, qayta moliyalash stavkasiga, pul muamalasiga hamda mamlakat aholisining bandlik darajasiga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Xususan, u iqtisodiyotning real sektoriga yoki ma'lum bir mintaqaga iqtisodiyotiga ta'sir qiladi.

Davlatning fuqarolar oldidagi asosiy funksiyalaridan biri bu uning byudjet mablag'laridan samarali foydalanish hamda ularni to'g'ri yo'naltirish hisoblanadi. Aynan shu funksiyalarni bajarishda davlat boshqaruvi organlarida bo'sh turgan moliyaviy resurslarning yetishmasligi ya'ni byudjet defitsiti jarayoniga tashqi qarzlarni jalb etish uni hal etishning samarali yo'llaridan biri hisoblanadi. Ushbu mablag'lardan foydalanish yo'li jalb etilgan qarz mablag'ining mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy yoki salbiy ta'sirini belgilab beradi. Shu o'rinda ayrim iqtisodchilarning fikriga ko'ra, davlatda jalb etilgan tashqi qarzdan samarali foydalanilmaslik xo'jalik yurituvchi subyektlar va aholi zimmasiga hozirgi davrda va kelajakda qarz hamda soliq yukini oshishiga sabab bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, davlatda qarz yuki iqtisodiy o'sishni sezilarli darajada pasaytirishi va ijtimoiy keskinlikni keltirib chiqarishi mumkin, chunki qarzlarni belgilangan miqdordan oshib ketishi davlatdagi iqtisodiyotga jalb etiladigan investitsiyalar hajmiga va ijtimoiy himoya uchun ajratiladigan mablag'lar miqdoriga o'z

ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi. Shu bilan birgalikda mamlakatning iqtisodiy va siyosiy qarorlarni mustaqil qabul qilishda to'siqlar yuzaga kelib, xorijiy davlatlar va xalqaro moliya institutlariga qaramligi ortib boradi. Bu esa davlat qarziga nisbatan yuqori tahliliy va samarali boshqaruv tamoyillarini joriy qilishni taqozo etadi.

So'nggi yillarda yurtimizda tashqi qarz dinamikasi yuqori sur'atlar bilan o'sib borayotganiga guvoh bo'lmoqdamiz. Bunga bir necha sabablar mavjud bo'lib, birinchidan, davlat o'z funksiyalarini bajarishi ya'ni aholini ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlashi zarur bo'lib, bunda mamlakatdagi moliyaviy imkoniyatlar cheklanganligi tufayli tashqi qarzdan foydalanishga majbur bo'lmoqda. Xususan, sog'liqni saqlash, ta'lim tizimini yaxshilash, aholini ichimlik suvi bilan ta'minlashni tashkil etish, ekologik vaziyatni barqarorlashtirish uchun bir qancha loyihalar amalga oshirilishi kerak. O'zbekiston Respublikasining 2023-yildagi davlat tashqi qarzi hisobidan davlat dasturlariga xarajatlar miqdori 7 813,0 mlrd so'mni tashkil etishi to'g'risida belgilab qo'yilgan. Bu ko'rsatkichning kelgusi yil uchun parametrlarida, ya'ni 2023-2025-yillarda yuqorilab borilishi nazarda tutilgan bo'lib, 11 800,0 mlrd so'mni hamda 13 400,0 mlrd so'mni tashkil etishi mo'ljallangan¹¹.

Ikkinchidan, iqtisodiy jihatdan funksiyalarini bajarishi uchun, jumladan ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirish uchun infratuzilmani to'g'ri yo'lga qo'yishi kerak: avtomobil yo'llari, aeroport va temiryo'llar qurilishi kabilar.

Uchinchidan, mamlakatimizda ichki qarz jalb etish jarayoni, kapital bozori va moliya bozorining rivojlanish darajasi past bo'lganligi oqibatida, tashqi qarz mablag'laridan kengroq foydalanilmoqda. Bu esa davlat qarziga nisbatan yuqori tahliliy va samarali boshqaruv tamoyillarini joriy qilishni taqozo etadi.

Bugungi kundagi O'zbekiston Respublikasi davlat qarzining joriy holatini hamda dinamikasini kuzatadigan bo'lsak, davlat qarzini makroiqtisodiy barqaror darajada saqlash hamda uni samarali boshqarish yuzasidan amalga oshirilayotgan choralar hamda milliy valyuta almashuv kursining barqarorligi sharoitlarida respublika iqtisodiyotining yuqori sur'atlar bilan o'sishining ta'minlanishi natijasida 2021-yildan boshlab Respublika davlat qarzining YAIM ga nisbati barqarorlashishi kuzatildi¹².

Davlat qarzi to'g'risida ma'lumot¹³

№	Ko'rsatkichlar	2024-yilning 1-choragi		2024-yilning 2-choragi	
		mln doll	jamiga nisbatan foizda	mln doll	jamiga nisbatan foizda
	DAVLAT QARZI	35 349	100%	37 028	100%
	YAIMga nisbatan foizda	31,7%		33,2%	
I	TASHQI QARZ	29 464	83%	30 899	83%

¹¹ O'zbekiston Respublikasining "2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonuni O'RQ-813-son 30.12.2022-y 1-ilova www.lex.uz

¹² O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining "O'zbekiston Respublikasi davlat qarzi holati va dinamikasi sharhi" 2022-yil III choragi" hisoboti/msnba: www.openbudget.uz

¹³ Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy saytiga joylangan. <https://www.imv.uz/static/umumiy-jadval>

	YAIMga nisbati	26,4%		27,7%	
1.1.	qat'iy belgilangan foiz stavkada	15 475	44%	16 854	46%
	o'zgaruvchan foiz stavkada	13 787	39%	13 826	37%
	foizsiz	201	1%	219	1%
1.2.	milliy valyutada denominatsiya qilingan	535	2%	604	2%
	chet el valyutasida denominatsiya qilingan	28 929	82%	30 294	82%
1.3.	qisqa muddatli	50	0%	38	0%
	bir yil ichida to'lik so'ndiriladigan uzoq muddatli	279	1%	208	1%
	bir yildan ortiq muddatda so'ndiriladigan uzoq muddatli	29 135	82%	30 653	83%
II	ICHKI QARZ	5 885	17%	6 130	17%
	YAIMga nisbati	5,3%		5,5%	
2.1.	qat'iy belgilangan foiz stavkada	3 985	11%	3 900	11%
	o'zgaruvchan foiz stavkada	253	1%	238	1%
	foizsiz	1 647	5%	1 992	5%
2.2.	milliy valyutada denominatsiya qilingan	2 478	7%	2 771	7%
	chet el valyutasida denominatsiya qilingan	3 407	10%	3 359	9%
2.3.	qisqa muddatli	469	1%	830	2%
	bir yil ichida to'liq so'ndiriladigan uzoq muddatli	1 254	4%	2 111	6%
	bir yildan ortiq muddatda so'ndiriladigan uzoq muddatli	4 162	12%	3 189	9%

2024 yilning 1 iyul holatiga, O'zbekistonning davlat qarzi ilk marta 37 mlrd dollardan oshdi¹⁴. Davlat qarzining 30,9 mlrd dollari – tashqi qarz, 6,1 mlrd dollari esa – ichki qarzni [tashkil etadi](#). Davlat qarzi 2024 yil 1-choragiga nisbatan 1 mlrd 679 mln dollarga ko'paygan. YaIMga nisbatan ulushi ham 1,5 foizga oshib, 31,7 foizdan 33,2 foizga yetgan. Taqqoslash uchun, 2023 yilning 1 iyul holatiga davlat qarzi 31 mlrd 628 mln dollarni tashkil etgan. Bir yil ichida ushbu ko'rsatkich 5,4 mlrd dollarga yoki 17 foizga oshgan.

So'nggi yillarda O'zbekiston tashqi qarzining o'sish sur'ati keskin oshdi. Xususan, 2017 yil yakunlari bo'yicha davlat qarzi 11,6 mlrd dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2023 yilning oxiriga kelib 34,9 mlrd dollarga yetdi yoki 3 barobarga ko'paydi.

Birinchii yarim yillik yakuniga ko'ra, jami davlat tashqi qarzining 42 foizi (13 mlrd dollar) byudjetni qo'llab-quvvatlashga, 19 foizi (5,7 mlrd dollar) yoqilg'i-energetika

¹⁴ Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy saytiga joylangan. <https://www.imv.uz/static/umumiy-jadval>

sohasiga, 9 foizi (2,7 mlrd dollar) transport va transport infratuzilmasiga, 9 foizi qishloq va suv xo'jaligiga (2,7 mlrd dollar) yo'naltirilgan.

Joriy yil 1 iyul holatiga davlat tashqi qarzining kreditorlar kesimida taqsimlanishi quyidagicha:

- Jahon banki — 6,7 mlrd dollar;
- Osiyo taraqqiyot banki — 6,5 mlrd dollar;
- Xalqaro investorlar (xalqaro yevrobondlar) — 4,2 mlrd dollar;
- Xitoy moliya tashkilotlari – 3,8 mlrd dollar;
- Yaponiya moliya tashkilotlari — 2,5 mlrd dollar;
- Osiyo infratuzilma investitsiyalari banki — 1,3 mlrd dollar;
- Islom taraqqiyot banki — 921 mln dollar;
- Fransiya moliya tashkilotlari – 823 mln dollar;
- Koreya moliya tashkilotlari — 735 mln dollar;
- Xalqaro valyuta jamg'armasi — 735 mln dollar;
- Germaniya davlat banki — 268 mln dollar;
- Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki— 226 mln dollar;
- Boshqa xalqaro moliyaviy tashkilotlar — 2,2 mlrd dollar.

Tashqi qarz ikki turga bo'linadi: davlat qarzi va xususiy (korporativ) qarz. Ayni paytda O'zbekistonning davlat qarzi 37 mlrd dollar, bu haqda yuqorida batafsil yozdik. O'z navbatida, O'zbekistonda ro'yxatdan o'tgan sub'ektlar davlat kafolatisiz tashqi qarz olsa, bu xususiy tashqi qarz deya qayd etiladi. Shunday bo'lsa-da, bunday “xususiy” qarzlarning katta qismi davlatga tegishli kompaniyalar hissasiga to'g'ri keladi. Masalan, O'zsanoatqurilishbank, Asakabank va Aloqabank Xitoy banklaridan kredit olib, yangi binolar qurmoqda.

Agar O'zbekistondagi davlat banki yoki korxonasi o'z nomidan va davlatning rasmiy kafolatisiz qarz olsa, bu xususiy qarz hisoblanadi. Lekin bu qarz davlat banki tomonidan olinayotgani sababli, uni “yarim davlat” yoki “kvazi-davlat” qarzi sifatida ham tasniflash mumkin, chunki qarz oluvchi – davlatga tegishli yoki davlat tomonidan nazorat qilinadigan tashkilot. Bu qarz davlat qarziga kirmaydi, lekin davlatning moliyaviy barqarorligiga ta'sir qilishi mumkin, ayniqsa, davlat korxonasi olgan qarzini qoplashda qiyinchilikka duch kelgan paytda. Oxirgi ma'lumotlarga [ko'ra](#), 2022 yilning 1 aprel holatiga O'zbekistonning umumiy tashqi qarzi 38,8 mlrd dollarni (shundan davlat tashqi qarzi – 23,4 mlrd dollar [hozir 30,9 mlrd dollar], xususiy tashqi qarz – 15,4 mlrd dollar) tashkil etgan. O'sha paytda xususiy tashqi qarzning 76 foizi (11,75 mlrd dollar) bank va yoqilg'i-energetika sektoriga jalb qilingan bo'lgan.

Xalqaro valyuta jamg'armasi ma'lumotlariga [ko'ra](#), 2023 yil yakuni bo'yicha umumiy tashqi qarz (davlat va davlat tomonidan kafolatlangan qarz, kafolatlanmagan davlat korxonalari qarzi va xususiy tashqi qarz) 53 mlrd dollar yoki YaIMning 60 foiziga yetgan.

Shuningdek, 6,1 mlrd dollarlik davlat ichki qarzi ham mavjud ekani, joriy yil birinchi yarmida ham qo'shimcha tashqi qarz mablag'lari jalb qilinganini hisobga olsak, umumiy qarz miqdori 60 mlrd dollardan oshganini taxmin qilish mumkin.

O'zbekistonning qarzi boshqa past daromadli mamlakatlarga qaraganda tezroq oshib boryapti. Ammo XVJ mamlakatning davlat qarzi bilan bog'liq muammolarga uchrash xavfini juda past darajada baholagan. Hukumat vakillari ham tashqi qarz hajmi mamlakat iqtisodiyoti va aholi soniga nisbatan katta emasligini ta'kidlab keladi. Ayrimlar Yaponiya va AQSh kabi mamlakatlarning ham katta qarzi borligini misol qilib keltirib, O'zbekiston uchun hech qanday tahdidlar mavjud emasligini aytadi. Ammo bu yerda ushbu mamlakatlar bilan jiddiy farqlar bor.

Qarz miqdorining oshib borayotgani quyidagi omillar sabab ehtimoliy xatarlarni yuzaga keltirishi mumkin.

O'zbekiston iqtisodiyoti yetarli darajada diversifikatsiyalanmagan. Mamlakat eksporti ko'proq tabiiy resurslar (oltin, uran, mis) va ma'lum bir sohalarga bog'liq. Pul o'tkazmalarining YaIM o'sishidagi ulushi katta. Bu turdagi iqtisodiyot tashqi bozor shoklariga anchayin sezgir bo'ladi. AQSh (35 trln dollar) yoki Yaponiya (4,43 trln dollar) kabi rivojlangan davlatlarning ham katta miqdorda tashqi qarzi bor. Ammo yuqoridagi mamlakatlar juda katta ishlab chiqarish va eksport potensialiga ega. Ya'ni ularning iqtisodiyoti to'liq diversifikatsiyalangan.

Ulardan farqli, oltin yoki mis narxining tushib ketishi, rubl kursining tebranishi natijasida pul o'tkazmalarining qisqarib ketishi O'zbekiston uchun jiddiy risklarni yaratadi. Milliy valyutaning qadrsizlanishi bilan bog'liq xavflar mavjud. 2024 yilning 1 iyul holatiga ko'ra, davlat tashqi qarz portfeli valyuta tarkibining 71,4 foizi AQSh dollari, 7,2 foizi Yaponiya ienasi, 7,1 foizi SDR (maxsus qarz olish huquqlari), 7 foizi yevro, 2,2 foizi yuan, 2 foizi o'zbek so'mi, 3,3 foizi boshqa valyutalardagi tashqi qarz hissasiga to'g'ri kelgan. Ya'ni davlat tashqi qarzining qariyb 98 foiz qismi xorijiy valyutada jalb qilingan. Valyuta kursining keskin o'zgarishi va o'zbek so'mining ehtimoliy qadrsizlanishi xizmat ko'rsatish xarajatlari va miqdoriga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, 2023 yilda o'zbek so'mi kuchli bosim ostida qoldi va dollarga nisbatan 9,8 foizga qadrsizlandi. Joriy yil 1 sentyabr holatiga bu ko'rsatkich 2,64 foizni tashkil qilgan. Qarzga xizmat ko'rsatish xarajatlari uchun mablag' milliy valyutada shakllanishini inobatga olsak, qarz yuki milliy valyuta qadrsizlanishi bilan yanada ortadi. Milliy valyutaning statusi jihatdan ham AQSh va Yaponiya tashqi qarzi O'zbekistonnikidan farq qiladi. AQSh dollari xalqaro zaxira valyutasi bo'lib, Qo'shma Shtatlar qarzining ko'p qismi o'z milliy valyutasida to'planadi. Bu AQShga o'z qarz majburiyatlarini ancha qulay sharoitlarda qaytarish imkonini beradi. Yaponiya ham ichki qarzning ko'p qismini o'z milliy valyutasida (iena) olgan. O'zbekistonning milliy valyutasi (so'm) xalqaro bozor uchun zaxira valyuta hisoblanmaydi, bu esa xalqaro qarzlarni qaytarishda foiz to'lovlaridan tashqari, almashuv kursi tebranishi bilan bog'liq muqarrar to'lovlar ham borligini anglatadi. Global inflyatsion holatning yomonlashishi fonida Markaziy banklarning qattiqlashtirish siyosati va foizlarni oshirishi xalqaro bozorlarda qarz va kapital narxini keskin qimmatlashtirib yubordi. Bu esa O'zbekistonga o'xshagan rivojlanayotgan mamlakatlar uchun tashqi qarz jalb qilishni qiyinlashtiradi.

Yaponiya va AQSh xalqaro moliyaviy bozorlarda yuqori kredit reytingiga ega davlatlar hisoblanadi. Bu davlatlarga investorning ishonchi yuqori bo'lgani sabab

ularning qarz olishlari oson va bu past foiz stavkalari bilan amalga oshiriladi. Qarz uchun xizmat ko'rsatish xarajatlari oshib boryapti. Masalan, 2023 yilda birgina davlat tashqi qarziga xizmat ko'rsatish xarajatlari 2,82 mlrd dollarga yetgan. Taqqoslash uchun, bu ko'rsatkich 2018 yilda 0,5 mlrd dollar bo'lgan. Bu yangi qarz olish va oldin olingan qarzni qaytarish miqdorlarining tenglashib qolishiga olib kelishi mumkin. Bunday sharoitda eski qarz yangi qarz bilan yopila boshlaydi.

Shunday bo'lsa-da, real iqtisodiy o'sish kutilmalarining yaxshiligi hisobiga XVI mutaxassislari O'zbekistonning umumiy tashqi qarz miqdorini 2023 yil oxiridagi YaIMning 60 foizidan 2029 yil oxirida YaIMning 51 foizigacha pasayishini prognoz qilgan.

O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda infratuzilma loyihalarini amalga oshirish ko'lami doimo o'sib boruvchi xarakterga ega. Bu kabi vazifalarni amalga oshirish uchun davlatda 2 ta muqobil yechim mavjud: soliqlarni oshirish yoki tashqi qarz va investitsiya mablag'larini jalb qilish. Soliqlarni oshirish istiqbolda iqtisodiyotni rivojlantirish rag'batlariga putur yetkazishi hisobga olinsa, ko'plab rivojlangan davlatlar ikkinchi yo'lni tanlashni afzal ko'rishadi. O'zbekiston misolida olib qaraydigan bo'lsak, hukumatga nisbatan asosiy savollar qarz mablag'larining oshib borayotgani bilan birga, jalb qilingan pulning samara bermayotgan va narxi qimmatlashtirilgan loyihalar uchun ishlatilishida bo'lyapti. Kovid va postkovid davri dunyoning ko'plab mamlakatlarida tashqi qarz o'sishiga olib keldi. Xususan, ushbu omillar ta'sirida 2020 yilda qarz jalb qilish miqdori keskin oshganini (17,8 mlrd dollardan 23,4 mlrd dollarga) ko'rish mumkin. Davlat byudjeti taqchilligining oshib borayotgani. 2022 yilda ushbu ko'rsatkich YaIMning 3,9 foizini yoki qariyb 35 trln so'mni tashkil etdi. 2023 yilda esa konsolidatsiyalangan byudjet taqchilligi limiti YaIMga nisbatan 3 foizdan 5,5 foizgacha, yillik tashqi qarz limiti 4,5 mlrd dollardan 5,5 mlrd dollargacha [ko'paytirildi](#).

Shu o'rinda mamlakatda davlat tashqi qarzini boshqarish hamda baholash muhim masalalardan biri hisoblanib, bir necha ko'rsatkichlardan foydalanishimiz maqsadga muvofiqdir.

Davlat qarzi hajmini baholash ko'rsatkichlari majmui¹⁵

Ta'minlanganlik manbasi	Ichki qarz	Tashqi qarz
So'ndirish	Yalpi ichki mahsulot	
Xizmat ko'rsatish	Monetizatsiya darajasi	Oltin-valyuta zahiralari
	Byudjet daromadlari	Eksport (tovar, xizmat)
	Yalpi ichki mahsulot	

¹⁵ Чекушина Т.В. Методология и оценка состояния государственных долгов// Вестник Руди. Сер. Инженерные исследования, 2006. -N°1 (12). - с. -148-158. Онлайн источник: <https://cyberleninka.ru/article/n/viewer>

Shu bilan birgalikda, T.Chekushina davlat qarzlarini boshqarish va baholashda beshta ko'rsatkichni keltirib, ulardan turli darajada foydalanishni tavsiya etadi. Jumaladan, YaIM, davlat byudjeti daromadlari, eksport hajmi, davlatning oltin valyuta zaxiralari va monetizatsiya koeffitsienti kabi ko'rsatkichlarni ta'kidlab o'tadi.

Ushbu olim tomonidan shartli ravishda chegara sifatida tashqi qarzning xavfli ulushi YaIMda 50 foiz, qarzga xizmat ko'rsatish va so'ndirish, foiz to'lovlari bo'yicha ulush mos ravishda eksportga nisbatan 30 foiz, 20 foizdan oshmasligi tavsiya etilgan.

O'zbekiston sharoitida monetizatsiya koeffitsienti va oltin-valyuta zaxiralarining to'liq statistikasini topishning imkoni bo'lmaganligi sababli tavsiya etilgan uchta makroiqtisodiy ko'rsatkich bo'yicha tahlillarni amalga oshirishga harakat qildik.

O'zbekiston davlat tashqi qarzining makroiqtisodiy ko'rsatkichlardagi ulushi, foizda¹⁶

Ko'rsatkich nomi	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023*
Asosiy qoldiq bo'yicha							
YaIMdagi ulushi	20,1	20,6	27,2	35,2	34,1	32,3	31,6*
Eksportdagi ulushi	75,2	88,5	118,9	66,3	70,3	73,9	-
Davlat daromadidagi ulushi	125	105	134	55,5	63,1	68,1	96,8*
Asosiy qarzni to'lash bo'yicha							
YaIMdagi ulushi	0,9	0,8	0,6	0,8	0,9	1	-
Eksportdagi ulushi	3,4	3,3	2,6	3,0	3,9	4,2	-
Davlat daromadidagi ulushi	5,6	3,9	3,0	3,6	4,4	4,6	-
Foizlarni to'lash bo'yicha							
YaIMdagi ulushi	0,3	0,3	0,0	0,5	0,4	0,5	-
Eksportdagi ulushi	1,1	1,2	0,4	2	1,9	2	-
Davlat daromadidagi ulushi	1,9	1,5	0,4	2,5	2,2	2,2	-

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan nisbatlar davlat qarzining makroiqtisodiy ko'rsatkichlardagi ulushini anglatadi. Tadqiqotimiz davomida quyidagi xulosalarni oldik:

¹⁶ jadval ma'lumotlari Jahon banki, O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi(YAIM), O'zbekiston Respublikasi "Ochiq byudjet" portali, Markaziy banki (valyuta kursi, to'lov balansi) va Moliya vazirligi (davlat byudjeti) ma'lumotlaridan foydalanib, muallif tomonidan hisoblandi.

- davlat tashqi qarzining asosiy qoldiqlarining eksportdagi ulushi ham barqaror ekanligini kuzatishimiz mumkin;

- tashqi qarz YaIMga nisbatan barqaror degan xulosaga kelishimizga asos bor, jumladan, so'nggi yetti yildagi (2017-2023-yillar) ko'rsatkichlarida tashqi qarz ko'rsatkichlari YaIM ga nisbatan xavfsiz chegaradan oshmagan;

- davlat qarzini qaytarishda byudjet daromadlariga nisbatan ulush 2017-yil keskin ko'tarilishi aks ettirgan. Keying yillarda esa byudjet daromadlari oshishi natijasida ushbu qiymat tushgan;

O'zbekiston Respublikasining davlat tashqi dinamikasi tahlili va uni boshqarish amaliyoti deb nomlangan bo'lib, mamlakatimizda davlat tashqi qarzining amaldagi holati tahlili amalga oshirildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi davlat qarzi tarkibiy qismlari va uning tahlili, davlat tashqi qarzining yillar kesimida dinamikasi va uning tahlili, davlat tashqi qarzining iqtisodiyot tarmoqlari kesimida taqsimlanishi, O'zbekiston Respublikasi davlat tashqi qarzining kreditorlar kesimida taqsimlanishi kabi so'nggi yillardagi ko'rsatkichlari, umuman olganda davlat tashqi qarzi bilan bog'liq barcha ko'rsatkichlar tahlil qilingan. O'zbekistonda bugungi kunda davlat qarzi amaliyotini tahlil etadigan bo'lsak, uning 2023-yil 1-oktabr holatiga umumiy davlat qarzi – 26,2 mlrd AQSh dollarini, (shundan, davlat tashqi qarzi – 23,3 mlrd AQSh dollarini), ya'ni yalpi ichki mahsulotga nisbatan 30,1 foizni tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkichlarni yillar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak, yillar kesimida davlat tashqi qarzi umumiy davlat qarzi kesimida ham o'sih tendensiyasiga ega ekanligini kuzatishimiz mumkin. O'zbekiston davlat tashqi qarzini baholashda respublika tashqi qarzini mamlakat makroiqtisodiy ko'rsatkichlaridagi ulushi orqali tahlili amalga oshirilgan bo'lib, bugungi kunda davlat tashqi qarzi ko'rsatkichlari barqaror degan xulosaga kelishimizga asos bor.

Mamlakatdagi iqtisodiy muvozanatni hamda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda davlat tashqi qarzini samarali boshqarish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida davlat tashqi qarzi umuman davlat qarzi holati turli xalqaro reyting agentliklari tomonidan barqaror holatda ekanligi baholanib kelinayotgan bo'lsa-da, uning dinamik ko'rsatkichlari yildan yilga o'sib borayotgani hisobga olinib, mamlakat iqtisodiyoti uchun xavfsiz chegaradan (mamlakat yalpi ichki mahsulotiga nisbatan 60 foiz) o'tib ketmasligini ta'minlash muhim masalalardan hisoblanadi. Bunda, davlat tashqi qarzini kelajakda qiymat yaratigan sohalarga yo'naltirish, qat'iy belgilangan strategiya orqali davlat tashqi qarzini boshqarish, tashqi qarzlarni monitoring qilishning samarali tizimini yaratish hamda asosiy qarz va unga xizmat ko'rsatish to'lovlarini o'z vaqtida amalga oshirish muhim masalalardan hisoblanadi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida davlat tashqi qarzi umuman davlat qarzi holati turli xalqaro reyting agentliklari tomonidan barqaror holatda ekanligi baholanib kelinayotgan bo'lsa-da, uning dinamik ko'rsatkichlari yildan yilga o'sib borayotgani hisobga olinib, mamlakat iqtisodiyoti uchun xavfsiz chegaradan (mamlakat yalpi ichki mahsulotiga nisbatan 60 foiz) o'tib ketmasligini ta'minlash muhim masalalardan hisoblanadi. Ammo, davlat tashqi qarzini qaytarish bilan bog'liq istiqboldagi murakkabliklarni bir necha holatlar bilan bog'lashimiz mumkin bo'ladi:

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

- so‘nggi yillarda mamlakatimizda YaIMga nisbatan davlat daromadlari (soliq yuki) pasayish tendensiyasiga ega bo‘lmoqda;
- tashqi qarzda davlatning ulushi yuqori darajada bo‘lib kelayotgani;
- savdo balansi salbiy qoldig‘i bilan tashqi qarz oshishi parallel ravishda yuzaga kelmoqda.

Olib borilgan tadqiqotimiz natijasida quyidagi xulosalarni shakllantirishga muvaffaq bo‘ldik:

Birinchidan, davlat tashqi qarzini boshqarish tizimining oqilona olib borilishi natijasida qarzning moliyaviy yukini teng taqsimlashga yoki iqtisodiy adolatga erishish mumkin;

Ikkinchidan, davlat tashqi qarzining mamlakat iqtisodiyotiga ma‘lum davlat dasturi va ijtimoiy vazifalarni bajarish uchun jalb etilishi joriy iste‘molni ta‘minlashi hamda kelajakda iqtisodiy o‘sishga sharoit yaratib berishi mumkin. shu sababli ham davlat tashqi qarzini jalb etish mamlakat iqtisodiyoti uchun to‘liq xavf deb qarash zamonaviy iqtisodiyotning bir bo‘lagi bo‘la olmaydi.

Biroq, ohirgi yillarda mamlakatimizda byudjet defitsitining vujudga kelishi qator omillar bilan bog‘liq bog‘liq bo‘lib, ular: davlat byudjeti daromadlarining ma‘lum doirasi bekor qilinishi, davlat dasturlarining keng ko‘lamli tarzda amalga oshirilayotganligi hamda byudjetdan tashqari jamg‘armalarning xarajatlari ham byudjet mablag‘lari hisobidan joriy etilish tizimi davlat byudjetiga moliyaviy yukning ortishiga muhim asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu esa o‘z navbatida, byudjet defitsitini yuzaga keltirib, davlatning tashqi qarzlardan foydalanishiga zarurat tug‘dirishi xorij tajribasidan ma‘lum.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Normativ-huquqiy hujjatlar

1.1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son

1.2. O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi // Qonun hujjatlari

1.3. O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son.

1.4. O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 813-sonli Qonuni // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 30.12.2022-y., 03/22/813/1144-son

1.5. O‘zbekiston Respublikasining “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 742-sonli Qonuni // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/742/1229-son.

1.8. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni// Qonun hujjatlari milliy bazasi, 10.02.2023-y., 06/23/21/0085-son

1.9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 16-maydagi “O‘zbekiston Respublikasining Tiklanish va Taraqqiyot jamg‘armasi faoliyatini tashkil qilish chora-

tadbirlari to'g'risida"gi PQ-350-sonli Qarori // Qonun hujjatlari milliy bazasi, 28.09.2020-y., 06/20/6075/1330-son.

1.10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 9-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasining 2020-2022-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4653 sonli Qarori., 18.08.2020-y., 06/20/6042/1190-son

1.13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-iyul 18-avgustdagi "Respublikada eksport va investitsiya salohiyatini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-6042-sonli Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 08.09.2021-y., 06/21/6306/0852-son.

1.14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 21-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi G'aznachiligi huzurida davlat qarziga xizmat ko'rsatish bo'yicha kafolat jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 573-sonli Qarori // Qonun hujjatlari milliy bazasi, 12.08.2021-y., 09/21/509/0784-son

1.15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 14-iyundagi "Xorijiy kreditlar o'z vaqtida qaytarilishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 267-sonli Qarori// O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2003-y., 11-son 89-modda.

1.16. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 19-iyuldagi "Xitoy Xalq Respublikasi bilan hamkorlikni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 338-sonli Qarori //O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami

1.17. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 28-noyabrdagi "Jalb etiladigan xorijiy kreditlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi kafolatlarini berish to'g'risida"gi 534-sonli Qarori //O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 34-36-son, 264-modda

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma'ruzalari

2.1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: "O'zbekiston " NMIU, 2017. – 21, 25-26-b.

2.2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: "O'zbekiston " NMIU, 2017. – 13-b.

2.3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: "O'zbekiston " NMIU, 2017. – 27-b.

2.4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 29.12.2020-y. // <https://president.uz/uz/lists/view/4057>

3. Darslik va o'quv adabiyotlari

3.1. Burxanov U.A. Iqtisodiyotning erkinlashuvi sharoitida davlat byudjeti taqchilligining omillari va qisqartirish masalalari : i.f.n. avtoreferat- T., BMA 2002-y. 22-b.

3.2. Fozilchayev Sh.Q., N.G'. Xidirov Investitsiya va lizing asoslari. O'quv qo'llanma - T.: "Iqtisod-moliya", 2017-y. 183-b.

3.3. Jumayev N.X., Raxmonov D.A., Azimova D.M. O‘zbekistonda davlat qarzi va iqtisodiy globallashuv. Monografiya - Toshkent 2014-y. 26-b.

3.4. Жиянова Н.Э. Управление государственными финансами. Учебно-методический комплекс – Т. 2018 г. С. 30

3.5. Nuritdinova V.Sh., Sharapova M.A. Moliyaviy nazorat. O‘quv-uslubiy qo‘llanma - T.: “Iqtisod-moliya”, 2014-y. - 121, 137-155-b.

3.6. Nurmuhamedova B. Davlat moliyasi. O‘quv qo‘llanma - T.: “Iqtisod-moliya”, 2019-y. - 132, 135-b.

3.7. Shernayev A.A., Komolov O.S. Davlat qarzlarini boshqarish. Darslik – T., “Iqtisod-moliya” 2019-y. – 108-b.

3.8. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik – T.; “Noshir”, 2012-y., 322-b.

3.9. Звонова Е.А. Международные валютно-кредитные отношения// Учебник и практикум для бакалавров 2017 год, стр. 301 - 317

4. Davriy nashrlar va to‘plamlar

4.1. Fuqarolar uchun byudjet: 2019-yil ijrosi // https://obdadminka.openbudget.uz/uploads/1/2019_uz.pdf

4.2. Fuqarolar uchun byudjet: 2020-yil ijrosi // https://obdadminka.openbudget.uz/uploads/1/jxZIVU5w3abooTi3GDD5vhee9JV-_qg8.pdf

4.3. Fuqarolar uchun byudjet – 2021-yil ijrosi // <https://obdadminka.openbudget.uz/uploads/1/-qgmQUwS9XShY6N-qKlFCWTI7fTVef1n.pdf>

4.4. Fuqarolar uchun byudjet – 2022-yil ijrosi // https://obdadminka.openbudget.uz/uploads/1/2022_uz.pdf

4.13. Uroqov U.Y., Tursunova Z.A. Actual issues in the management of external debt // “Science and education” scientific journal/December 2022/volume 3 issue12

4.14. O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining “O‘zbekiston Respublikasi davlat qarzi holati va dinamikasi sharhi” 2022-yil III choragi” hisoboti 2022-yil 1-oktabr

4.15. O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining Davlat qarzi holati va dinamikasi sharhi “2021-yil 3-chorak uchun davlat tashqi qarzi hisoboti” 2021-yil 1-aprel

4.16. O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining Davlat qarzi holati va dinamikasi sharhi “2021-yil 3-chorak uchun davlat tashqi qarzi hisoboti” 2021-yil 1-iyul

4.17. O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining Davlat qarzi holati va dinamikasi sharhi “2021-yil 3-chorak uchun davlat tashqi qarzi hisoboti” 2021-yil 1-oktabr